

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI QOSHIDAGI
YURISTLAR MALAKASINI
OSHIRISH MARKAZI**

Sh.M. Rabiiev, R.R. Shakurov, J.S. Murotov

**INTELLEKTUAL MULK
HUQUQI BO'YICHA
MASALALAR TO'PLAMI**

O'quv-amaliy qo'llanma



*Ushbu qo'llanma Konrad Adenauer Fondining O'zbekistondagи
vakolatxonasi bilan hamkorlikda nashr etildi*

**“Adolat”
milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2022**

UO'K 347.2/.3(08)

KBK 67.404.1

I - 61

Rabiyev Sh.M., Shakurov R.R., Murotov J.S. Intellektual mulk huquqi bo'yicha masalalar to'plami. *O'quv-amaliy qo'llanma*. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi. – T.: 2022. – 40 b.

ISBN 978-9943-8165-6-5

UO'K 347.2/.3(08)

KBK 67.404.1

I - 61

O'quv-amaliy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi O'quv va ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan 2022-yil 16-iyunda chop etishga tavsiya qilingan (17-sonli bayonnomma).

Taqrizchilar: O. Oqyulov, yuridik fanlari doktori, professor
D. Raximov, yuridik fanlar nomzodi

O'quv-amaliy qo'llanmada intellektual mulk obyektlari, mazkur huquq munosabatlarni tartibga solish, intellektual mulk huquqi subyektlarining huquq va majburiyatlari hamda intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishga oid nazariy topshiriqlar, nazorat savollari, test topshiriqlari va amaliy masalalar keltirilgan.

O'quv-amaliy qo'llanma oliy yuridik ta'lim o'quv muassasalari tababalari va kursantlari hamda malaka oshirish markazlari tингlovchilari uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-8165-6-5

© Sh.M. Rabiyev, R.R. Shakurov,
J.S. Murotov, Yuristlar malakasini
oshirish markazi
© "Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi, 2022-y.

KIRISH

Nazariy bilimlarni mustahkamlashda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar ahamiyatlidir.

Mazkur o'quv-amaliy qo'llanmada keltirilgan amaliy mashg'ulotlarga doir nazariy topshiriqlarni bajarish, nazorat savollariga javob berish, test topshiriqlari va amaliy masalalarni yechish, intellektual mulk huquqi obyektlari mazkur huquq munosabatlarini tartibga solish, intellektual mulk huquqi subyektlarining huquq va majburiyatlari hamda intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofaza qilishga oid amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'mak beradi. Xususan, nazariy topshiriqlarni bajarish mazkur sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarda keltirilgan sharhlarni o'rganishni talab etadi. Bu, o'z navbatida, qo'llanmada keltirilgan nazorat savollariga javob berishga imkon yaratadi.

Test topshiriqlari savol va mazkur savolga oid bitta to'g'ri javob hamda uchta muqobil noto'g'ri javobdan tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligi normalarida intellektual mulk huquqiga oid tushuncha va qoidalarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Amaliy masalalar intellektual mulk huquqi munosabatlariga oid tartib-taomillarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan yohud amaliyotdan olingan aniq misollar asosida tayyorlangan.

Nazorat savollariga javob berish, test topshiriqlarini yechish va amaliy masalalarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (keyingi o'rinnlarda – FK), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, sohaviy normativ-huquqiy aktlar, shuningdek, to'plamning yakunida keltirilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Ushbu o'quv-amaliy qo'llanma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining "Intellektual mulk" munosabatlarini tartibga soluvchi VII-bo'limiga mos tuzilishga ega.

INTELLEKTUAL MULK HUQUQI

I bob. UMUMIY QOIDALAR

Nazariy topshiriqlar

Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o‘rganish:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1031 – 1040-moddalari;
2. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidiagi kodeksining 177, 177¹, 177²-moddalari;
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 149-moddasi;
4. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdaggi 395-II-son “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘sishimchalar kiritish haqida”gi Qonuni;
5. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdaggi 397-II-son “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘sishimchalar kiritish haqida”gi Qonuni;
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 97-maqсади;
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldaggi PQ-4168-son “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldaggi PQ-4380-son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2021-yil 10-iyundagi 23-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorining 1-bandи.

Nazorat savollari

1. Intellektual mulk obyektlari jumlasiga nimalar kiradi?
2. Intellektual faoliyat natijalariga nimalar kiradi?
3. Tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy aks ettiruvchi vositalarini nimalar tashkil etadi?
4. Intellektual mulk obyektlariga oid shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga qanday huquqlar beradi?
5. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofazasi qaysi holarda va tartibda amalga oshiriladi?
6. Shaxsiy nomulkiy huquqlarni tashkil etadigan mulk obyektlariga nimalar kiradi?
7. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlar deganda nima tushuniladi?
8. Intellektual faoliyat natijasiga nisbatan mutlaq huquqqa oid litsenziya shartnomasi nimaga ruxsat beradi?
9. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqning amal qilishi qachon bekor qilinishi mumkin?
10. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilishning qanday usullari mavjud?

Test topshiriqlari

1. *Intellektual mulk obyektlari jumlasiga nima kirmaydi?*
 - a) tasavvurlar
 - b) san'at asarlari
 - c) fonogrammalar
 - d) ixtiolar
2. *Xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalarga nima kiradi?*
 - a) tovar belgisi
 - b) kabel orqali ko'rsatuv
 - c) san'at asarlari
 - d) seleksiya yutuqlari

3. Shaxsiy nomulkiy huquqlarni tashkil etadigan mulk obyektlaridan birini ko'rsating.

- a) mualliflik huquqi
- b) iqtisodiy huquq
- c) xususiy huquq
- d) ijtimoiy huquq

4. Mualliflik huquqi boshqa shaxsga o'tkaziladimi?

- a) yo'q, o'tkazilmaydi
- b) ha, o'tkaziladi
- c) o'zga shaxsning istagiga bog'liq
- d) bu masala qonunchilikda tartibga solinmagan

5. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquq qaysi hujjatga muvofiq o'tkaziladi?

- a) shartnoma
- b) kelishuv
- c) qaror
- d) ma'lumotnoma

6. Intellektual mulk obyektidan foydalanish huquqini boshqa shaxsga berish to'g'risidagi shartnoma qanday nomlanadi?

- a) sublitsenziya shartnomasi
- b) substansiya shartnomasi
- c) sublimatsiya shartnomasi
- d) subsidiya shartnomasi

7. Qo'shimcha litsenziatning harakatlari uchun litsenziar oldida kim javobgar bo'ladi?

- a) litsenziat
- b) shartnoma tuzgan tashkilot
- c) hech kim javobgar bo'lmaydi
- d) bu masala qonunchilikda tartibga solinmagan

8. Intellektual faoliyat natijasiga nisbatan litsenziya shartnomasi pullik hisoblanadimi?

- a) ha, pullik hisoblanadi
- b) yo‘q, pullik hisoblanmaydi
- c) bu mulk egasiga havola
- d) bu masala qonunchilikda tartibga solinmagan

9. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan shaxsiy nomulkiy huquqlar qaysi muddatda amal qiladi?

- a) muddatsiz
- b) bir yil muddatda
- c) elliq yil muddatda
- d) yuz yil muddatda

10. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqning muayyan vaqt mobaynida foydalanmaslik oqibatini aniqlang.

- a) mutlaq huquq bekor qilinadi
- b) hech qanday oqibat kelib chiqmaydi
- c) mulk egasi huquqidan voz kechadi
- d) bu masala qonunchilikda tartibga solinmagan

Amaliy masalalar

1-masala

Fuqaro M. va R.lar o‘rtasida 2022-yil 5-iyun kuni “Intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi shartnoma imzolandi va unda muallifning kelgusida muayyan turdag'i intellektual faoliyat natijalarini yaratishini cheklaydigan shartlar belgilab o‘tildi.

Bir muddat vaqt o‘tgach tomonlar o‘rtasida nizo yuzaga keldi. Fuqaro M. da’vo arizasi bilan sudga murojaat qildi va sud mazkur ishni ko‘rib chiqib, muallifning kelgusida muayyan turdag'i intellektual faoliyat natijalarini yaratishini cheklaydigan shartlarini kiritgani uchun shartnomani hajiqiy emas deb topdi.

Savol: Sudning qaroriga huquqiy baho bering.

2-masala

Fuqaro R. (muallif) va X. o'rtasida shartnoma imzolanib, unda muallif zimmasiga ushbu muallif kelgusida yaratadigan har qanday intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish uchun mutlaq huquqlarни birorta shaxsga berish majburiyati yuklatildi. Bundan fuqaro R. norozi bo'lib, bunday shartnoma haqiqiy emasligini e'tirof etdi.

Savol: Mazkur holatga huquqiy baho bering.

3-masala

Fuqaro I. so'zli tovar belgisini tegishli organda ro'yxatdan o'tkazib guvohnoma oldi va mazkur tovar belgisi "Saxovat" MChJga tegishli bo'lgan transport vositalarida aks ettirildi.

Transport vositasi "Saxovat" MChJga tegishli bo'lGANI uchun tovar belgisi ham ushbu yuridik shaxsga tegishli bo'lishi yuridik shaxs rahbari tomonidan bildirildi.

Savol: Yuridik shaxs rahbarining fikri qonunchilik talablariga muvofiqmi?

4-masala

Marhum U. tomonidan tomonidan yozib qoldirilgan asarni u vafot etganidan 70 yil o'tib, fuqaro Sh. 70 yillik muddat o'tganligi sababli o'zini nomidan qayta nashr etdi.

Savol: Fuqaro Sh.ning harakatlari qonunchilikka muvofiqmi?

5-masala

"Salomat farm" MChJ tomonidan dori vositasi ishlab chiqilib, dori vositasi qadoqlarida "Bioritm" MChJga tegishli bo'lgan tovar belgisi tushirilib muomalaga kiritildi. Bundan xabar topgan "Bioritm" MChJ vakillari O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasiga murojaat qildi.

Savol: Mazkur holatda mutlaq huquqlarni himoya qilish uchun qanday usullardan foydalaniladi?

II bob. MUALLIFLIK HUQUQI

Nazariy topshiriqlar

Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o'rganish:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1041 – 1073-moddalari;
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risi-dagi kodeksining 177^l-moddasi;
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 149-mod-dasi;
4. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldaggi O'RQ-42-son “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonuni-ning 2-bob 4-42-moddalari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldaggi PQ-3855-son “Ilmiy va ilmiy-tehnikaviy faoliyat natijalarini tijorat-lashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldaggi PQ-4380-son “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorining 4-bandи.

Nazorat savollari

1. Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq mualliflik huquqi nimalarga nisbatan tatbiq etiladi?
2. Oshkor qilingan yozma asarlarga nimalar kiradi?
3. Mualliflik huquqi obyektlariga nimalar kiradi?
4. Mualliflik huquqi obyektlari hisoblanmaydigan materiallarga nimalar kiradi?
5. Rasmiy hujjatlar, ramzlar va belgilarning loyihalariga bo'lgan huquqlarga nima kiradi?
6. Fuqarolik qonunchiligiga asosan mualliflik huquqi qaysi hol-larda yuzaga keladi?
7. Mualliflik prezumpsiyasi deganda nima tushuniladi?

8. Hammualliflik deganda nima tushuniladi?
9. Hosila asarga bo‘lgan mualliflik huquqi deganda nima tushuniladi?
10. Mualliflik huquqining himoya belgilariga nimalar kiradi?
11. Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlariga nimalar kiradi?
12. Muallifning mulkiy huquqlarini nimalar tashkil etadi?
13. Mualliflik huquqlarining cheklanishi qanday shartlarga rioya qilgan holda tatbiq etiladi?
14. Qaysi hollarda asarlardan muallifning roziligidisiz foydalanishga yo‘l qo‘yiladi?
15. Mualliflik huquqining amal qilish sohalarini sanab bering.
16. Mualliflik huquqi qaysi muddatda amal qiladi?
17. Asarning ijtimoiy mulkka aylanishi nimani bildiradi?
18. Mualliflik shartnomasining huquqiy oqibatlarini aytинг.
19. Mualliflik shartnomasining shartlariga nimalar kiradi?
20. Mualliflik shartnomasi bo‘yicha qanday javobgarlik bor?

Test topshiriqlari

1. *Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq mualliflik huquqi nimalarga nisbatan tatbiq etiladi?*
 - a) san’at asarlari
 - b) siyosiy huquqlar
 - c) mulkiy huquqlar
 - d) ilmiy tasavvurlar
2. *Qonunga asosan omma oldida asarlarni so‘zlash qanday shaklda oshkor qilingan deb ataladi?*
 - a) obyektiv shakl
 - b) subyektiv shakl
 - c) normativ shakl
 - d) irodaviy shakl
3. *Mualiflik huquqi ijodiy faoliyat natijasining nimasiga nisbatan tatbiq etiladi?*

- a) ifoda shakli
- b) g'oyalar
- c) prinsiplar
- d) uslublar

4. *Mualliflik huquqi obyektlariga nima kiradi?*

- a) ssenariy asarlari
- b) rasmiy belgilar
- c) xalq ijodiyoti asarlari
- d) rasmiy hujjatlar

5. *Mualliflik huquqi obyektlariga nima kirmaydi?*

- a) rasmiy hujjatlar
- b) musiqa asarlari
- c) xoreografiya asarlari
- d) haykaltaroshlik

6. *Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, asarning asl nusxasida mu-allif sifatida ko'rsatilgan shaxs kim deb ataladi?*

- a) asar muallifi
- b) asar yaratuvchisi
- c) asar tayyorlovchisi
- d) asar

7. *Hammualliflar o'rtaсидаги муносабатлар, қоидаги тарияхасида, нима асосида белгиланади?*

- a) kelishuv
- b) yarashuv
- c) do'stlashuv
- d) pullik to'lov

8. *Mualliflik huquqining himoya belgilariga nima kirmaydi?*

- a) asar chop etilgan nashriyot manzili
- b) aylana ichiga olingan lotincha "S" harfi
- c) alohida mualliflik huquqlari egasining ismi (nomi)
- d) asar birinchi marta e'lon qilingan yil

9. Qonunga muvofiq mualliflik huquqining himoya belgisida ko'rsatilgan shaxs kim deb hisoblanadi?

- a) huquq egasi
- b) kasb egasi
- c) asar egasi
- d) ish egasi

10. Asar muallifi deb e'tirof etilishi shaxsga qanday huquqni yaratadi?

- a) shaxsiy nomulkiy huquq
- b) shaxsiy mulkiy huquq
- c) shaxsiy iqtisodiy huquq
- d) shaxsiy siyosiy huquq

11. Asarning har qanday moddiy shaklda tayyorlangan ko'chirmasi nima deyiladi?

- a) asar nusxasi
- b) asar asli
- c) asar ko'chirmasi
- d) moddiy asar

12. Muallifning roziligidiz asarning bezaklar, so'zboshi, xotima, sharhlar yoki biron-bir tushuntirishlarini nashr etish mumkinmi?

- a) nashr etish taqiqlanadi
- b) ha, albatta mumkin
- c) ha, nashriyot ruxsati bilan
- d) ha, muallif vafotidan so'ng

13. Muallifga asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanish qanday huquqlar tegishli?

- a) mutlaq huquqlar
- b) shaxsiy nomulkiy huquq
- c) shaxsiy iqtisodiy huquq
- d) shaxsiy siyosiy huquq

14. Muallifning mulkiy mutlaq huquqlari qanday harakatlarga ruxsat berish huquqini anglatmaydi?

- a) asar muallifi deb e'tirof etish
- b) asarni takrorlash
- c) asarning asl nusxasini sotish
- d) asarning asl nusxasini prokatga berish

15. Oshkor qilingan asarni shaxsiy maqsadlarda muallifning rozilisiz takrorlashga yo'l qo'yiladimi?

- a) ha, yo'l qo'yiladi
- b) yo'q, yo'l qo'yilmaydi
- c) muallif roziligi kerak
- d) bu masala qonunchilikda tartibga solinmagan

16. Mualliflik huquqi muallifning hayoti davomida qaysi mudatda amal qiladi?

- a) muallifning butun hayoti davomida
- b) asarning e'lon qilingan kunidan boshlab yigirma yil davomida
- c) asarning e'lon qilingan kunidan boshlab ellik yil davomida
- d) asarning e'lon qilingan kunidan boshlab yuz yil davomida

17. Mualliflik huquqi muallifning vafotidan keyin necha yil davomida amal qiladi?

- a) ellik yil davomida
- b) yigirma besh yil davomida
- c) yigirma yil davomida
- d) o'n yil davomida

18. Mualliflik huquqining amal qilish muddatini tugashi asarlarning qanday mulkka aylanishini bildiradi?

- a) ijtimoiy mulk
- b) iqtisodiy mulk
- c) xususiy mulk
- d) asar mulkka aylanmaydi

19. Mualliflik shartnomasi qaysi shaklda tuzilishi lozim?

- a) yozma shaklda
- b) og‘zaki shaklda
- c) bunday shartnomasi tuzilmaydi
- d) shartnomasi shakliga talab yo‘q

Amaliy masalalar

1-masala

Fuqaro Sh. “Advokat” nomli fuqaro X.ning asarini tarjima qildi va o‘zini asar muallifi deb e’tirof etdi.

Shunda fuqaro X. fuqaro Sh.ning bu harakatini qonunga zid ekanligini bildirib e’tiroz qildi.

Savol: Mazkur holatda fuqaro Sh.ning harakati qonunga muvofiqmi?

2-masala

Muallifning asarini, shu jumladan, uning nomini sha’ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tarzda buzib ko‘rsatish holatiga yo‘l qo‘yildi. Uning merosxo‘ri muallif obro‘sini himoya qilish uchun sudga da’vo ariza bilan murojaat qildi.

Savol: Mazkur holatda sud qanday yo‘l tutishi mumkin?

3-masala

Fuqaro R. arxitektura asarlarini muallifning roziligidan takrorla di va muallif unga e’tiroz qilganida fuqaro R. arxitektura asarlarini shaxsiy maqsadlarda takrorlaganini va bunga muallifning roziligi talab etilmasligini aytdi.

Savol: Fuqaro R.ning harakatlari qonunga muvofiqmi?

4-masala

Fuqaro R. tomonidan 1972-yilda, ya’ni bundan 50 yil oldin asar yozilib, taxallus ostida qonuniy oshkor qilingan, biroq 1992-yili fuqaro R. o‘z shaxsini ma’lum qildi. Fuqaro B. fuqaro R.ga tegishli bo‘lgan asarni mualliflik huquqining amal qilish muddati tugagan, ya’ni 50 yillik muddat o‘tganligi uchun va bu asar ijtimoiy mulkka aylan-gan deb asardan haq to‘lamagan holda erkin foydalana boshladi.

Savol: Fuqaro Sh.ning harakatiga huquqiy baho bering.

5-masala

Fuqaro X. tomonidan konsert zalida “matnsiz musiqa asari” omma oldida ijro etildi va fuqaro X. o‘zini ushbu matnsiz musiqa asari muallifi deb e’tirof etdi, biroq fuqaro R. bunga e’tiroz bildirib, bu asar matnsiz bo‘lgani uchun mualliflik huquqi obyekti bo‘la olmasligini bildirdi.

Savol: Fuqaro R.ning fikri qonunchilikka muvosiqmi?

6-masala

Fuqaro R. she’r yozib, ushbu she’rini auditoriyada dars davomida tinglovchilarga o‘qib eshittirdi, shunda tinglovchilardan biriga she’r ma’qul bo‘lib, u uni o‘z nomidan nashr etdi.

Savol: Mazkur holatda she’rning muallifi etib kim e’tirof etiladi?

7-masala

Fuqaro N. intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnomalarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, to‘plam holatiga keltirib, o‘zini muallif deb ko‘rsatdi.

Savol: Mazkur holatda ushbu to‘plam mualliflik huquqi obyekti hisoblanadimi?

8-masala

Fuqaro S. tomonidan asar yozilib, internet sahifasida chop etish orqali ommaga havola qilindi. Biroq, fuqaro M. mazkur asarni qayta o‘z nomi bilan chop etdi.

Fuqaro S. bu asar unga tegishli ekanligini ma’lum qilib e’tiroz qilganida fuqaro M. mualliflik huquqining yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun ushbu asarni ro‘yxatdan o‘tkazmaganligini vaj qilib, bu asar unga tegishli emasligini aytdi.

Savol: Mazkur holatda fuqaro M.ning harakatlariga huquqiy baho bering.

9-masala

Fuqaro U. va N. birgalikda o‘quv qo‘llanma nashr etdilar. Bunda o‘quv qo‘llanmaning birinchi qismini fuqaro U. hamda ikkinchi qismini fuqaro N. tayyorlashdi.

Shunda ular o'rtasida nizo kelib chiqdi va fuqaro U. faqatgina birinchi qismigagina muallif bo'la olishini, fuqaro N. esa ikkinchi qismiga muallif bo'la olishini bildirdi.

Savol: Fuqaro U.ning bildirgan fikri qonunchilikka muvofiqmi?

10-masala

Fuqaro Sh. va S. hammualliflikda kitob chiqarishdi. Ushbu kitobning mustaqil mazmunga ega bo'lgan birinchi paragrafini fuqaro Sh. va 29 ta mustaqil mazmunga ega bo'lgan paragrafini fuqaro S. tayyorladi. Shunda mualliflik haqini taqsimlashda hammualliflar o'rtasida nizo yuzaga keldi.

Savol: Mazkur holatda mualliflik haqi hammualliflar o'rtasida qanday taqsimlanadi?

11-masala

Fuqaro Sh. "Oltin kalit" nomli asar yozdi va ommaga oshkor qildi, shuningdek fuqaro V. bilan ushbu asardan foydalanish to'g'risida shartnoma tuzdi. Biroq, oradan 10 kun o'tgach fuqaro Sh. asarni chaqirib olishga qaror qildi. Shunda asardan foydalanayotgan fuqaro V. e'tiroz qilib, zarar ko'rishini aytdi va asarni chaqirib olmaslikni talab qildi.

Savol: Fuqaro Sh. o'z asarini chaqirib olishga haqlimi? Buning uchun qanday harakatlarni amalga oshirishi kerak?

12-masala

Fuqaro I. tomonidan yozilgan asarni fuqaro Z. bezaklar bilan nashr etdi va asar mazmuniga o'zgartirish kiritmagani, faqatgina bezak bergani uchun fuqaro I.ning roziligini olmadи.

Savol: Fuqaro Z.ning harakatlari qonunga muvofiqmi?

13-masala

Fuqaro X. muallifligida darslik tayyorlash jarayoni boshlandi va darslikning 90 foiz qismi tayyor bo'lgach, fuqaro X. vafot etdi hamda ushbu darslikni fuqaro X.ning shogirdi fuqaro I. tugatib qo'ydi va fuqaro X.ni, ya'ni vafot etgan fuqaroni muallif sifatida ko'rsatdi.

Savol: Fuqaro I.ning harakatlariga huquqiy baho bering.

III bob. TURDOSH HUQUQLAR

Nazariy topshiriqlar

Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o'rganish:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1074-1079-moddalari;
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risi-dagi kodeksining 177¹-moddasi;
3. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldaggi O'RQ-42-son "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuning 3-bob 43-55-moddalari;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldaggi PQ-4380-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 4-bandи.

Nazorat savollari

1. Turdosh huquqlar obyektlariga nimalar kiradi?
2. Turdosh huquqlar subyektlari kimlar bo'lishi mumkin?
3. Turdosh huquqlar obyektini ro'yxatdan o'tkazish yoki boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinadimi?
4. Turdosh huquqlarning muhofaza belgilarini nimalar tashkil etadi?
5. Ijrochiga qanday huquqlar tegishli?
6. Fonogramma tayyorlovchi qanday huquqlarga ega?
7. Efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yohud eshittirish beruvchi tashkilotning huquqlarini sanab bering.

Test topshiriqlari

1. *Turdosh huquq obyektlaridan birini aniqlang.*
 - a) ijrolar
 - b) arxitektura asarlari
 - c) rangtasvirlar
 - d) pantomimalar

2. Turdosh huquq obyektlariga nima kirmaydi?

- a) drammatik va ssenariy asarlari
- b) fonogramma va ijrolar
- c) kabel orqali ko'rsatuv
- d) efir orqali eshittirish

3. Turdosh huquqning himoya belgilariga nima kiradi?

- a) aylana ichidagi lotincha "R" harfi
- b) asar chop etilgan nashriyot manzili
- c) aylana ichidagi lotincha "A" harfi
- d) aylana ichidagi lotincha "T" harfi

4. Turdosh subyektlardan birini ko'rsating.

- a) fonogrammalarini tayyorlovchilar
- b) matnli musiqa asarlarni yaratuvchilar
- c) shaharsozlik asarlarini tayyorlovchilar
- d) arxitektura asarlarini yaratuvchilar

5. Fonogrammani tayyorlovchi o'z fonogrammasidan foydalanishning har bir turi uchun haq olish huquqiga egami?

- a) ha, bunday huquqqa ega
- b) yo'q, bunday huquqqa ega emas
- c) bu masala
- d) bu masala tartibga solinmagan

6. Efir orqali eshittirish tashkilotga o'z eshittirishidan foydalanishda qanday huquqlar beradi?

- a) mutlaq huquqlar
- b) ayrim huquqlar
- c) shaxsiy huquqlar
- d) hech qanday huquqlar

7. Kabel orqali ko'rsatuv beruvchi tashkilot o'z ko'rsatuvidan foydalanish uchun haq olish huquqiga egami?

- a) ha, haq olish huquqiga ega
- b) yo'q, haq olish huquqiga ega emas

- c) muallif roziligi kerak
- d) bu masala qonunchilikda tartibga solinmagan

Amaliy masalalar

1-masala

Fuqaro A. muallifligidagi “Oltin kalit” asarining nusxalarini V.Usmonov prokatga bergani va tarjima qilib tarqatgani uchun fuqaro A. o‘z asaridan foydalanishning har bir turi, ya’ni prokatga bergani uchun alohida va tarjima qilib tarqatgani uchun alohida haq talab qildi.

Savol: Fuqaro A.ning talabi qonuniymi? Javobingizni qonuniy asoslab bering.

2-masala

Fuqaro Sh. Eshmat Chinniyevning qo’shig‘iga fonogramma tayyorladi va ushbu fonogramma yozilgan disklar g‘ilosida aylana ichidagi lotincha «S» harfini aks ettirdi.

Savol: Fuqaro Sh.ning harakati qonunchilik hujjatlari talabiga mosmi?

3-masala

Fuqaro X. “Bolalar guruhi” qo’shig‘iga fonogramma tayyorladi va hech qanday ro‘yxatdan o’tkazmasdan turib o‘zini mazkur tur-dosh huquq obyekti muallifi deb e’tirof etdi.

Savol: Qonunchilik normalariga asoslangan holda mazkur holatga huquqiy baho bering.

4-masala

Fuqaro U. 1890-yilda vafot etgan Ilxom Turdiyevning asarini bezaklar, so‘zboshi, xotima, sharhlar hamda tushuntirishlar bilan nashr etdi. Fuqaro U.ning harakatlariga Ilxom Turdiyevning merosxo‘rlari e’tiroz qilishdi.

Savol: Fuqaro U.ning harakatlariga huquqiy baho bering.

5-masala

Fuqaro Sh. muallifligidagi asarning mazmunini tashkil etuvchi qoidalarni fuqaro A. hamda I.lar amaliy qo'llaganlari uchun fuqaro Sh. ularning ushbu harakatlarini asardan foydalanish deb e'tirof etib, ulardan haq talab qildi.

Savol: Fuqaro Sh.ning talabi qonuniymi? Javobingizni qonuniy asoslab bering.

6-masala

Fuqaro U. muallifligidagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish” to‘g‘risidagi maqola bo‘yicha fuqaro M. va U. o‘rtasida muallifning o‘z shaxsiy nomulkiy huquqlarini amalga oshirishdan voz kechish to‘g‘risida kelishuv tuzildi.

Savol: Mazkur kelishuvni tuzish qonunchilik talablariga muvofiqmi?

IV bob. SANOAT MULKIGA BO'LGAN HUQUQ (IXTIRO, FOYDALI MODEL, SANOAT NAMUNASIGA BO'LGAN HUQUQ)

Nazariy topshiriqlar

Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o'rganish:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1082-1090-moddalar;
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risi-dagi kodeksining 177²-moddasi;
3. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldaggi O'RQ-42-son "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasi;
4. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdaggi 397-II-son "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldaggi PQ-4168-son "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 9-bandı.

Nazorat savollari

1. Ixtiro, foydali model va sanoat namunasiga bo'lgan huquq qaysi taqdirda muhofaza qilinadi?
2. Patentga bo'lgan huquqni tasarruf etish deganda nima tushuniladi?
3. Talabnomada muallif tariqasida ko'rsatilgan shaxs boshqacha holat isbotlangunga qadar kim deb hisoblanadi?
4. Ixtiro, foydali model, sanoat namunasining hammualliflari deganda kimlar tushuniladi?
5. Patentga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risi-dagi shartnoma qaysi organ tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi kerak?
6. Patentni buzganlik uchun qanday javobgarlik nazarda tutilgan?

7. Patentni buzish qoidabuzarga qanday oqibatlarni keltiradi?
8. Qoidabuzarlik oqibatida patent egasiga yetkazilgan zarar qanday qoplanadi?

Test topshiriqlari

1. *Sanoat namunasiga bo‘lgan huquq qanday taqdirda muhofaza qilinadi?*
 - a) patent berilganda
 - b) guvohnoma berilganda
 - c) buyruq berilganda
 - d) berilganda
2. *Patent egasidan boshqa shaxslar uning ruxsatisiz ixtirodan foydalanishga haqlimi?*
 - a) yo‘q, haqli emas
 - b) ha, haqli
 - c) patent egasi roziligi shart emas
 - d) bu masala qonunchilikda tartibga solinmagan
3. *Boshqacha holat isbotlanmagunga qadar ixtiro mahsulot qanday usul bilan tayyorlangan hisoblanadi?*
 - a) patentlangan
 - b) ruxsatsiz qilingan
 - c) isbotlanmagan
 - d) ixtirochining yo‘qligi
4. *Patentdan kelib chiqadigan huquqlar boshqa shaxsga qanday berilishi mumkin?*
 - a) to‘liq yoki qisman
 - b) faqat to‘liq
 - c) faqat qisman
 - d) boshqa shaxsga bunday huquq berilmaydi
5. *Patentga bo‘lgan huquqni boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnoma qaysi shaklda tuzilishi kerak?*

- a) yozma shakl
- b) og‘zaki shakl
- c) elektron shakl
- d) shakliga talab yo‘q

6. Foydali modeldan foydalanish ruxsatnomasi qanday nomlanadi?

- a) litsenziya
- b) ruxsatnoma
- c) buyruq
- d) ma’lumotnoma

7. Sanoat namunasidan foydalanish litsenziyasi shartnomasini haqiqiy emas deb topish sabablaridan birini aniqlang.

- a) shartnomaning ro‘yxatdan o‘tkazilmaganligi
- b) shartnomaning ro‘yxatdan o‘tkazilishi
- c) shartnoma yozma shaklda tuzilishi
- d) bu masala qonunchilikda tartibga solinmagan

8. Patent egasiga yetkazilgan zarar kim tomonidan qoplanadi?

- a) qoidabuzar tomonidan
- b) davlat tomonidan
- c) zarar qoplanmaydi
- d) bu masala qonunchilikda tartibga solinmagan

Amaliy masalalar

1-masala

A.Raximov va V.Usmonov bir-biridan mustaqil ravishda sanoat mulki obyektini yaratishdi. V.Usmonov ushbu yaratgan sanoat mulki obyektiqa patent olish uchun 2022-yil 22-yanvar kuni talabnoma bilan Adliya vazirligiga murojaat qildi, A.Raximov esa shunday talabnoma bilan 2022-yil 29-yanvar kuni murojaat qildi.

Savol: Mualliflarning qaysi biri patent olish huquqiga ega? Javobingizni qonuniy asoslab bering.

2-masala

“Qulay ixtiro” MChJ xodimi V.Usmonov ish beruvchidan olgan aniq topshiriqni bajarish maqsadida sanoat mulki obyektini yaratdi, shu bilan birga V.Usmonov va ish beruvchi o‘rtasida hech qanday shartnama imzolanmadidi.

Bundan foydalanib, V.Usmonov Adliya vazirligiga sanoat mulki obyekting patentini o‘zining nomiga olish uchun talabnomalar topshirdi.

Savol: V.Usmonovning harakatlari qonunga muvofiqmi?

3-masala

M. Lazizov yangi ixtirosi ustida ish olib borish jarayonida M. Ismatov unga matematik hisob kitoblarda yordamlashdi va ixtiroga o‘zini hammuallif sifatida rasmiylashtirishni talab qildi.

Savol: M. Ismatov mazkur holatda hammuallif bo‘la oladimi?

4-masala

M. Ismatov o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida yangi ixtiro yaratdi. Bunda ish beruvich va M. Ismatov o‘rtasida mehnat shartnomasidan boshqa hech qanday shartnama mavjud emas edi, hatto mehnat shartnomasida ham bu masalada hech bir qoida belgilanmagan bo‘lsada, ish beruvchi mazkur ixtironi M. Ismatov o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida yaratganligi uchun xizmat ixtirosiga patent olish huquqi ish beruvchiga tegishli bo‘lishini bildirdi.

Savol: Mazkur holatda ish beruvchi haqmi?

V bob. O'SIMLIKLARNING YANGI NAVLARI VA HAYVONLARNING YANGI ZOTLARIGA BO'LGAN HUQUQ

Nazariy topshiriqlar

Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o'rghanish:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1091-1094-moddalarini;
2. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdaggi 395-II-son "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni.

Nazorat savollari

1. O'simliklarning yangi navlari qaysi taqdirda muhofaza qilinadi?
2. Hayvonlarning yangi zotlariga (seleksiya yutuqlari) bo'lgan huquqlar qanday muhofaza qilinadi?
3. Seleksiya yutug'iga patent berish tartibi nima bilan belgilangan?
4. Seleksiya yutug'i patentining egasi qanday huquqlarga ega?
5. Seleksiya yutug'i patenti egasi qanday majburiyatlarga rioya qilishi kerak?

Test topshiriqlari

1. *O'simliklarning yangi navlariga bo'lgan huquqlar qanday hujjat mavjudligida muhofaza qilinadi?*
a) patent
b) guvohnoma
c) kelishuv
d) ruxsatnoma

2. *Seleksiya yutug'i muallifiga to'lanadigan haq miqdori qaysi hujjatda belgilanadi?*

- a) shartnoma
- b) kelishuv
- c) xulosa
- d) ruxsatnoma

3. *Seleksiya yutuqlariga bo'lgan huquqlar boshqa shaxsga qanday berilishi mumkin?*

- a) to'liq yoki qisman
- b) faqat to'liq
- c) faqat qisman
- d) boshqa shaxsga bunday huquq berilmaydi

4. *Patentning egasi qanday hujjatda belgilangan doirada seleksiya yutug'idan foydalanish huquqiga ega?*

- a) qonun
- b) kelishuv
- c) qaror
- d) farmoyish

5. *Seleksiya yutug'i patentni egasining majburiyatlaridan birini aniqlang.*

- a) o'simlik navini saqlab qolinadigan tarzda asrash
- b) o'simlik navini bozorda sotmaslik
- c) o'simlik navini uy sharoitida saqlamaslik
- d) bu masala qonunda tartibga solinmagan

Amaliy masalalar

1-masala

Fuqaro Yu. o'simliklarning yangi navini yaratdi va seleksiya yutug'ining muallifi sifatida patent oldi. Oradan 5 yil o'tib, fuqaro Yu. vafot etdi. Fuqaro Yu.ning hamkasblari ushbu seleksiya yutug'iga egalik qilish maqsadida patentni qayta rasmiylashtirishni maqsad qilib qo'yishdi.

Savol: Fuqaro Yu. tomonidan yaratilgan seleksiya yutug'i muallifi sifatida uning hamkasbi bo'la oladimi?

2-masala

Fuqaro E. ish beruvchini o'zi yaratgan seleksiya yutug'i to'g'risida yozma ravishda xabardor qildi. Oradan 6 oylik muddat o'tib ketdi, biroq ish beruvchi Adliya vazirligiga patent berish haqidagi talabnomani topshirmadi, shuningdek patent berish haqidagi talabnomani topshirish huquqidan boshqa shaxs foydasiga ham voz kechmadi, uning ustiga seleksiya yutug'ini sir saqlash to'g'risida fuqaro E.ga ma'lum qilmadi. Shunda fuqaro E.ga mazkur seleksiya yutug'ini o'z nomiga patent sifatida olishni maslahat berishdi.

Savol: Mazkur holatda fuqaro E. xizmat vaqtida yaratgan seleksiya yutug'iga patent olishi mumkinmi?

VI bob. OSHKOR ETILMAGAN AXBOROTNI NOQONUNIY FOYDALANISHDAN MUHOFAZA QILISH

Nazariy topshiriqlar

Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o‘rganish:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1095-1097-moddalari;
2. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 177, 177¹, 177²-moddalari;
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 149-moddasi.

Nazorat savollari

1. Oshkor etilmagan axborotni muhofaza qilish huquqlarini sanab bering.
2. Oshkor etilmagan axborotni muhofaza qilish huquqi qaysi shartlar saqlanib turgan paytga qadar amal qiladi?
3. Oshkor etilmagan axborotdan noqonuniy foydalanganlik uchun qanday javobgarlik bor?
4. Oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalananishdan muhofaza qilish huquqi nimadan qat’i nazar vujudga keladi?
5. Qonunga muvofiq oshkor etilmagan axborotni qonuniy asosi bo‘lmay turib tarqatgan shaxs axborot egasiga nisbatan qanday harakat qilishi kerak?
6. Oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalananishdan muhofaza qilish huquqining boshqa shaxsga o‘tishi tartibini keltiring.

Test topshiriqlari

1. *Uchinchi shaxslarga ma’lum (oshkor) etilmagan axborot turlaridan birini ko’rsating.*
 - a) texnikaviy axborot
 - b) shaxsga doir ma’lumot
 - c) shaxsiy hayot sirlari
 - d) oilaviy ahvoli haqidagi axborot

2. Oshkor etilmagan axborotni qonuniy asosi bo‘lmay turib foydalangan shaxs axborot egasiga nisbatan nima qilishi shart?

- a) yetkazilgan zararni to‘lashi
- b) yetkazilgan zarar uchun uzr so‘rashi
- c) bu holatda hech qanday shart yo‘q
- d) yetkazilgan zarar haqida xabar bermaslik

3. Oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqini vujudga keltiradigan rasmiyatichilik qanday hujjatda namoyon bo‘ladi?

- a) axborotga nisbatan huquqni ro‘yxatdan o‘tkazish
- b) oshkor etilmagan axborot haqida hech kimga aytmaslik
- c) boshqa shaxslardan axborotni sir tutishni so‘rash
- d) bu masala fuqarolik qonunchiligidagi tartibga solinmagan

4. Qaysi holda o‘zga shaxs oshkor etilmagan axborot egasi-ning huquqlaridan qat‘i nazar bunday axborotdan foydalanishga haqli?

- a) bunday ma’lumotlar qonunan olinganda
- b) bunday ma’lumotlar o‘zboshimchalik bilan olinganda
- c) bunday ma’lumotlar o‘zga shaxsning ilmiy ishiga foydali bo‘lganda
- d) bunday ma’lumotlar uchinchi shaxslar borligida olinsa

5. Oshkor etilmagan axborotga ega bo‘lgan shaxs bu axborotni qanday hujjat asosida boshqa shaxsga berishi mumkin?

- a) litsenziya shartnomasi
- b) ruxsat shartnomasi
- c) talab shartnomasi
- d) ma’lumot shartnomasi

Amaliy masalalar

1-masala

Fuqaro A. kartoshka ekib uni serhosil bo‘lish sirini topdi va buni nou-xau sifatida Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazmadi.

Savol: Mazkur holatda fuqaro A. tomonidan yaratilgan nou-xau noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilinadimi?

2-masala

Fuqaro M. kartoshka ekib uni serhosil bo‘lish sirini topdi. Bundan xabar topgan qo‘shti daladagi fuqaro J. bu sirni barcha dehqonlarga oshkor qildi va natijada kartoshkaning narxi bozorda tushib ketdi va fuqaro M. katta zarar ko‘rdi.

Savol: Mazkur holatda fuqaro M.ning harakatlari qanday bo‘lishi kerak?

3-masala

Fuqaro J. va Xasanov asalarichilik bilan shug‘ullanib, asalarilar ko‘proq asal berishining sirini har birlari mustaqil ravishda bildilar. Biroq, bundan xabar topgan fuqaro X. fuqaro J.ni oshkor etilmagan ma’lumotini o‘g‘irlab, undan noqonuniy foydalanganlikda aybladi.

Savol: Mazkur holatda fuqaro J. o‘zi mustaqil aniqlagan sirdan foydalanishi qonunga xilofmi?

VII bob. FUQAROLIK MUOMALASI QATNASHCHILARI, TOVARLAR, ISHLAR VA XIZMATLARNI SHAXSIYLASHTIRISH VOSITALARI

Nazariy topshiriqlar

Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarni o'rganish:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1098-1111-moddalari;
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risi-dagi kodeksining 177, 177¹-moddalari;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldag'i PQ-4168-son "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldag'i PQ-4380-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 1,4, 5-bandlari.

Nazorat savollari

1. Yuridik shaxs o'z firma nomidan qaysi holatlarda foydalanishi mumkin?
2. Yuridik shaxs firma nomidan unga tegishli tovar belgisidan foydalanishi mumkinmi?
3. Chet davlatda ro'yxatga olingan nomga O'zbekiston hududida alohida huquq qaysi hollarda amal qiladi?
4. Firma nomiga bo'lgan huquqning amal qilish tartibi qanday?
5. Firma nomiga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga berish tartibini yoriting.
6. Qaysi hujjat asosida korxona egasi boshqa shaxsga o'zining firma nomiga bo'lgan huquqidan foydalanishga ruxsat beradi?

Test topshiriqlari

1. Yuridik shaxs o'tkazilayotgan ko'rgazmalarda mahsulotlarni namoyish etish vaqtida nima nomidan foydalanish huquqiga ega?

- a) firma
- b) o‘zga firma nomidan
- c) yuridik shaxs bunday huquqga ega emas
- d) bu masala fuqarolik qonunchiligidagi tartibga solinmagan

2. *Yuridik shaxsning firma nomi uning qaysi rasmiy hujjatlari ko‘rsatiladi?*

- a) ta’sis hujjatlarda
- b) gazetaning e’lonlar qismida
- c) korxona tashqarisidagi bannerlarda
- d) internet sahifalarida

3. *Firma nomiga bo‘lgan huquq yuridik shaxsda qaysi vaqt-dan e’tiboran yuzaga keladi?*

- a) davlat ro‘yxatidan o’tkazilganda
- b) ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinganda
- c) korxona faoliyatini boshlaganida
- d) korxona byudjetiga muayyan miqdordagi pul kelib tushganda

4. *Yuridik shaxsning belgisi tariqasida O‘zbekistonda ro‘yxatga olingan nomga bo‘lgan alohida huquq qaysi hududda amal qiladi?*

- a) O‘zbekiston Respublikasi hududida
- b) dunyoning barcha davlatlari hududida
- c) faqat MDH davlatlari hududida
- d) bu masala fuqarolik qonunchiligidagi tartibga solinmagan

5. *Firma nomiga bo‘lgan huquqning amal qilishi qaysi holda bekor bo‘ladi?*

- a) yuridik shaxs tugatilsa
- b) jismoniy shaxs tugatilsa
- c) firma nomiga bo‘lgan huquq bekor bo‘lmaydi
- d) bu masala fuqarolik qonunchiligidagi tartibga solinmagan

6. *Qaysi holda yuridik shaxsning firma nomiga bo‘lgan huquqini boshqa shaxsga berishga yo‘l qo‘yilmaydi?*

- a) yuridik shaxs faoliyatini davom etganda
- b) korxona boshqa shaxsga berilganda
- c) yuridik shaxs qayta tashkil etilganda
- d) korxona boshqa shaxsga sotilganda

Amaliy masalalar

1-masala

Fuqaro S. tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazdi va undan besh yil davomida bor-yo'g'i ikki marta foydalandi. Shunga fuqaro J. tovar belgisidan oxirgi uch yil mobaynida foydalanmagani uchun mazkur tovar belgisini amal qilishini muddatidan oldin tugatish uchun sudga da'vo ariza bilan murojaat qildi.

Sud esa, o'z navbatida, fuqaro J.ning da'vo talabini to'liq qanoatlantirdi.

Savol: Sudning chiqargan qarori qonunchilik talablariga muvofiqmi?

2-masala

Fuqaro U. 2021-yil 5-avgust kuni "Silovsinlar" nomli MChJni davlat ro'yxatidan o'tkazdi va mazkur so'zni tovar belgisi sifatida Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazdi.

Savol: Bir so'zni ham firma nomi, ham tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish qonunchilikka muvofiqmi?

3-masala

Fuqaro Sh. "Tezyurar" nomli nom ostida MChJni ro'yxatdan o'tkazdi. Shunda fuqaro E. mazkur firma nomidan foydalanish istagiini bildirdi.

Savol: Mazkur holatda fuqaro Sh. o'z firma nomini fuqaro E.ga qanday tartibda berishi mumkin?

4-masala

Fuqaro J. tovar belgisini 2015-yil 25-dekabrda qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazib guvohnoma oldi. Undan 2017-yil 26-dekabrgacha uzluksiz foydalandi, ammo 2017-yilda undan umuman foydalanmadidi.

Savol: Mazkur holatda fuqaro J.ga tegishli bo‘lgan tovar belgisi manfaatdor shaxsning talabi bo‘yicha sudning qaroriga asosan bekor qilinishi mumkinmi?

5-masala

Fuqaro U. so‘zli tovar belgisini davlat ro‘yxatidan o‘tkazib guvohnoma oldi va bu tovar belgisini fuqaro I.ga shartnoma tuzish orqali berdi.

Bunda tomonlar faqatgina shartnomani o‘zaro imzoladilar va boshqa hech qanday harakatni amalga oshirmadilar.

Savol: Fuqaro I. mazkur tovar belgisidan ushbu shartnoma asosida foydalanishi mumkinmi?

TAVSIYA ETILADIGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA YURIDIK ADABIYOTLAR

Normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi/ <https://lex.uz/docs/35869?otherlang=3>

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi/ <https://lex.uz/docs/180552>

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi/ <https://lex.uz/docs/111453>

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi/ <https://lex.uz/docs/97664>

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagisi 395-II-soni "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagisi 397-II-soni "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O'RQ-457-soni "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuni/ <https://lex.uz/docs/3492199>

O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagisi O'RQ-42-soni "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni/ <https://lex.uz/acts/1022944>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldagisi PQ-4168-soni "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori/ <https://lex.uz/docs/4195426>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagisi PQ-4380-soni "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori/ <https://lex.uz/docs/4395007>

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2021-yil 10-iyundagi 23-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori.

Yuridik adabiyotlar

Омон Оқюлов. Интеллектуал мулк ҳуқуқи. – Тошкент, 2005 йил. – 40 б./[https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/huquq/Intellektual%20mulk%20huquqi%20\(O.Oqyulov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/huquq/Intellektual%20mulk%20huquqi%20(O.Oqyulov).pdf)

Якубова И.Б. Муаллифлик ҳуқуқи: Ўқув кўлланма/ <http://muzaffar.uz/huquq-olamida/2719-mualliflik-huquqi.html>

Турсунова М., Ҳамидов И. Қандай қилиб кавер кўйлаш ва муаллифлик ҳуқуқини бузмаслик борасида/ <https://anhor.uz/uz/pravovoy-razbor/qanday-qilib-kaver-kuylash-va-mualliflik-huquqi-ni-buzmaslik-borasida/>

MUNDARIJA

I bob. Umumiy qoidalar.....	4
II bob. Mualliflik huquqi.....	9
III bob. Turdosh huquqlar.....	17
IV bob. Sanoat mulkiga bo‘lgan huquq (ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga bo‘lgan huquq)	21
V bob. O‘simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlariga bo‘lgan huquq.....	25
VI bob. Oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish.....	28
VII bob. Fuqarolik muomalasi qatnashchilari, tovarlar, ishlar va xizmatlarni shaxsiylashtirish vositalari	31
Tavsiya etiladigan normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlar	35

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BO‘YICHA MASALALAR TO‘PLAMI

O‘quv-amaliy qo‘llanma

Nashr uchun mas’ullar:

F. Tojiyev

Sh. Abdullayev

Muharrir:

Sh. Xalsaidova

Kompyuterda sahifalovchi:

X. Xoliyorov

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko‘chasi, 19-uy.
Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Bosishga ruxsat etildi 19.08.2022-y.

Qog‘oz bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$. “AntiquaUz” garniturasi.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog‘i 2,5.

Nashriyot hisob tabog‘i 21. Adadi 50 nusxa.
-buyurtma.